



BAHODIR YALANGTO'SH SHAXSIGA TARIXIY CHIZGILAR

Nizomiy nomidagi TDPU

Tarix fakulteti "O'zbekiston tarixi" kafedrası

o'qituvchisi t.f.n.

N. O'. Xidirova

Anatasiya. Ushbu maqolada Ashtarxoniyalar davrida Samarqand hoki va otaliq vazifalarida faoliyat yuritgan Bahodir Yalangto'shning faoliyati ochib berishga xarakat qilingan. Unda Bahodir Yalangto'sh shaxsi va faoliyatiga oid manbalar tahlil qilinib, uning mulklariga oid hujjatlar ham ko'rib chiqilgan. Shuningdek, asosli ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ashtarxoniyalar, Bahodir Yalangto'sh, shaslar tarixi, vaqf, hujjatlar, manba, tug', hokim.

Анотация. В данной статье предпринята попытка раскрыть деятельность Баходира Ялангтоша, который был хакимом (губернатором) и оталиком Самарканда в период Аштарханидского ханства. В статье анализируются источники, связанные с личностью и деятельностью Баходира Ялангтоша, а также изучаются документы, связанные с его имуществом. Также приводятся обоснованные научные выводы.

Ключевые слова: Аштарханиды, Бахадир Ялангтош, история личность, основание, документы, источник, происхождение, правитель.

Abstract. This article attempts to uncover the activities of Bakhodir Yalangtosh, who was the hakim (governor) and otalik of Samarkand during the Ashtarkhanid Khanate. The article analyzes sources related to the personality and activities of Bakhodir Yalangtosh, and studies documents related to his property. It also provides substantiated scientific conclusions.

Keywords: Ashtarkhanids, Bakhodir Yalangtush, history, personality, foundation, documents, source, origin, ruler.

Kirish. O'rta Osiyo xalqlarining o'rta asrlar davri ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim o'rin tutgan shaxslarning hayoti va faoliyatini o'rganish, tadqiq etish, ilmiy muomlaga kiritish nafaqat mahalliy balki dunyoning ko'plab tarixchi hamda sharqshunos olimlarning e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, hozirgi kungacha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahliliga nazar solsak, Amir Temur va temuriylar, tasavvuf vakillari, islom ilmlari rivojiga munosib hissa qo'shgan ayrim shaxslar faoliyatini o'rganish sohalarida ancha yutuqlarga erishildi. Shunga qaramay, hali yetrali darajada tadqiq etilmagan tarixiy shaxslar ham talaygina. Ular qatoriga Bahodir Yalangto'sh (1576-1656)ni kiritish mumkin.

Mazkur maqolada mavjud manba va tadqiqotlardagi ma'lumotlarga asoslanib Bahodir Yalangto'sh shaxsini ochib berishga xarakat qilamiz.

Manbalarda Bahodir Yalangto'sh shaxsi va faoliyati.

Ma'lumki, Bahodir Yalangto'sh Shayboniyalar sulolasi hukmronligining so'ngi choragida (1500-1601) tug'ilib voyaga yetdi va asosan o'z faoliyatini Ashtarxoniyalar (1601-1757) davrida yuritdi. U o'zbeklarning olchin urug'iga mansub bo'lib, bu urug vakillari



markaziy shaharlardan tashqari, dasht hamda Afg'onistonning G'o'ri hududida ham istiqomat qilganlar [1]. Shuningdek, ular ba'zi malumotlarga ko'ra o'zbeklarning 92 urug'lari qatoriga ham kirgan. Fazlulloh ibn Ro'zbekxon o'zinning "Mehmonnoma-i Buxoro" asarida XVI asr boshlarida yashagan dashti qipchoq o'zbeklarini uch toifaga bo'ladi: Shayboniylar qo'li ostidagi qabilalar, dashtqipchoqning sharqiy qismiga ko'chib ketgan qozoqlar, mang'itlar [2]. Tadqiqotchi K. Shoniyozov qozoqlarni XV asr ikkinchi yarmi XVI asrning birinchi choragida ham o'zlarini "o'zbek-qozoq"lari deb ataganligini, shu asrlargacha ular dashtqipchoq o'zbeklarining bir qismi hisoblaganliklarini ta'kidlaydi [3].

Manbalarda Bahodir Yalangto'shning ismi Abdulkarim, Nizomiddin, Xatoy bahodir [4] tarzida ham uchraydi.

XVI asr ikkinchi yarmi XVII asrlarda yozilgan tarixiy asarlar uning asosan siyosiy faoliyati haqida ma'lumotlar beradi. Shunday bo'lsada ularning ayrimlarida shaxsiy sifatlarini ochib beruvchi ma'lumotlar ham uchraydi. Xususan, Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror fi manoqibi ul-ahror" ("Olijanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi") asarida u "jasur no'yon, ish bilgan amir" sifatida ta'riflanadi [4]. Uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotdagi ishtiroki Ashtorxoniy hukmdorlari Boqi Muhammadxon (1601-1605), Vali Muhammadxon (1605-1611), Imomqulixon (1611-1642)larning faoliyatlari bilan chambarchas bog'liq. Shu bois tarixiy asarlarda uning nomi ko'p hollarda yuqorida keltirilgan hukmdorlar nomi bilan yonma-yon keladi. Bahodir Yalangto'sh asosan Imomqulixonni taxtga chiqishini qo'llab-quvvatlaydi va unga qarashli bo'lgan hududlar chegarasini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Xususan, u 1614 yil Marvga, 1618 yilda Xurosonga hujum qiladi [5].

1612 yildan u Samarqand hokimi keyinchalik otaliq vazifalariga tayinlandi. Ko'rib chiqilayotgan davrlarda otaliq eng yuqori mansablardan biri bo'lib, u hukmdorning otasiga tenglashtirilgan va Buxoro xonligida suvlar taqsimotini nazorat qilgan. Ushbu taqsimot chegarasi Samarqanddan Qorako'lgacha bo'lib, asosan Samarqand va uning tumanlariga yuqori lavozimli shaxsdan tortib oddiy xalq vakillarigacha suvni adolatli taqsimlanishi shart edi [6]. Shuningdek, ushbu lavozim bosh vazir maqomiga to'g'ri kelgan va unga asosan o'zbeklar urug'idan bo'lgan shaxslar tayinlangan [7]. Bundan tashqari ayrim olchin urug'iga mansub shaxslar to'qsoba (tug' sohibi) lavozimida ham faoliyat yuritgan [8]. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra esa to'qsoba yuksak harbiy mansablardan biri bo'lgan [7], ba'zilariga ko'ra u amir dasturxoniga javobgar shaxs hisoblangan [9].

Bahodir Yalangto'shning otaliq mansabiga oid vazifalarni qay yo'sinda bajarganligi to'g'risida hozircha ma'lumotlar uchramadi. Agar ushbu masalaga oid hujjatlar aniqlansa uning shaxsi va faoliyatini ochib berish imkoniyati yanada kengayar edi.

Hujjatlarda uning Boy bek ismli o'g'li eslatib o'tiladi. Xususan, 1642 yilda tuzilgan vasiqada (vasiqa-i bay-i joiz) mulla Badi degan shaxs Yalangto'sh biy otaliq o'g'li Boy bekning qonuniy ishonchli vakili sifatida ma'lum bir garov evaziga mullo Nodir Samarqandiyga chorbog'dan qonuniy foydalanish huquqini beradi [10]. U otasidan yetti yil oldin 1650 yilda vafot etadi.



Yalangto'sh Bahodirning o'g'lidan tashqari Iqlimbonu (vafoti 1657) va Oybiy (yoki oybibi, vafoti 1666) ismli ikkita qizi bo'lib [11], Oybiy otasi vafotidan keyin uni qurilishlarini davom ettirgan bo'lsa kerak. Chunki, M.E. Masson o'z tadqiqotida xojagon Kosoniy (Mahdumi A'zam) qabri ustiga qurdirgan maqbara va tillakoriy madrasalari qurilishi uning avlodlari tomonidan davom ettirilganligiga ishora qiladi [12].

Bahodir Yalangto'sh mulklariga oid hujjatlar.

Bahodir Yalangto'sh XVI asr birinchi yarmida yashagan katta mulkdor shaxslardan biri edi. U shaxsiy mulklari jihatdan Buxoro hukmdorlaridan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Ushbu mulklarga oid hujjatlar O.D.Chexovich tomonidan o'rganilib ularning ayrimlari ilmiy muomlaga kiritilgan [13]. Ushbu tadqiqotga asoslanib Bahodir Yalangto'sh mulklariga oid hujjatlarni quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

1. Sotib olingan mulklarga oid vasiqalar;
2. Vaqf mulklari;
3. Soliqlardan ozod qilinganligi to'g'risidagi farmon (hukmnoma)lar.

Bahodir Yalangto'sh tomonidan sotib olingan mulklarga oid hujjatlar qatoriga Xoja Hoshim Ahroriyning qizi Oybegimning yer-mulklarini kiritish mumkin. Ushbu hujjatda keltirilishicha, Oybegimga tegishli yer-mulklar Ofrikent tumanining Yarimtug ' (Yarimchug') qishlog'ida joylashgan. Mulk Oybegimning ishonchli vakili Abdulla o'g'li mehtar Kolva tomonidan Boyxo'ja o'g'li Yalangto'shbiyga 4300 tangaga sotilgan (14; 13).

Bahodir Yalangto'sh tomonidan qurdirilgan Sherdor va Tillokori madrasalariga tegishli vaqf mulklari asosan Samarqandning Ofarinkent, Totkent, Shovdor tumanlarining Buyrachi (Bo'ryochi), Qorayog'och, So'g'di kalon, Alhasan tepa, oqtepa, Naxri Haydar, Oq Muhammad soy, Atoliq (Otaliq), Pahlavonhushi, Qorasuv, Oyimobod kabi qishloq va hududlarida joylashgan bo'lib, ular 26 ta yirik yer-mulklaridan iborat edi. Xususan, Shovdor tumanining Hinduvon degan joyida joylashgan vaqf mulklarini chegaralarini aniqlash uchun tuzilgan hujjat hozirgi kungacha saqlanib qolgan (13). Shuningdek, unga qarashli ayri yer-mulklari soliqlardan ham ozod qilingan (13).

Xulosa qilib aytganda, Bahodir Yalangto'sh o'z davrining ko'zga ko'ringan yirik shaxslaridan biri bo'lib, u siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirdi. Kelgusida uning hayoti, tarixiy shaxs sifatidagi faoliyatini ochib berishda maxsus ilmiy tadqiqotlar yaratish zarur. Buning uchun, hozirda mavjud bo'lgan tarixiy ma'lumotlar, arxiv fondlarida saqlanayotgan hujjatlarni tadqiq qilish, ularni tarjima variantlarini yaratish talab etiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan ishlarni amalga oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. O'zR FA ilmiy tadqiqot institutlarining ilmiy xodimlari bilan viloyat universitetlari professor o'qituvchilari, magistr va talabalari, turizmni rivojlantiri muassasalari, arxiv fondlari bilan hamkorlikda ishlash, qo'shma loyihalarni amalga oshirish;
2. Qo'shni Respublika olimlari bilan hamkorlik qilish;
3. Qo'lyozma manbalar bilan ishlay oladigan mutaxassislar ishtirokida muntazam yozgi maktablar tashkil qilish;



4. O'rta asrlar davrida mavjud bo'lgan turkiy qabilalar, etnik guruhlar haqida chuqur tadqiqotlar yaratish;

5. O'rta Osiyo xonliklari hududlarida yashagan tarixiy shaxslar faoliyatini bir qabila yoki millat nomi bilan bog'lab bo'lmaydi. Shu bois, ilmiy asosga ega, har tomonlama tekshirilgan tadqiqotlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мухаммад Юсуф Мунший. Муким-ханская история. Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А. Семенова. Ташкент. 1956.

2. Фазлаллах ибн Рузбехан Исфуханий. Мехман-нома-йи Бухара (записка Бухарского гостя). Перевод и примечания Р.П. Джалиловой. Москва. 1976.

3. Шониёзов К. Ўзбек халқини шаклланиш жараёни. Тошкент. 2001.

4. Аҳмедов Б. тарихдан сабоқлар. Тошкент. 1994.

5. Маликшах Хусайн Сеистони “Хроника воскрешения царей” (“Тарихи ихйа’ ал-мулк”). Перевод с персидского, предисловие, комментарий и указатели Л.П. Смирновой. Москва. 2000.

6. Семенов А.А. бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // Советское востоковедение v. 1948. С. 137-153.

7. Валиева Д. Бухоро хонлигида мансаблар масаласига доир // Шарқшунослик. 2002. 91-101 бетлар.

8. Мир Мухаммад Амин-и Бухорий. Убайдулла-наме. Перевод с таджикского с примечаниям А.А. Семенова. Ташкент. 1957.

9. Вохидов Ш. Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан (XIX-XX аср бошлари). Тошкент. 2006.

10. Казаков Б.А. документальные памятники Средней Азии. Ташкент. 1987.

11. Сувонкулов И. Самарқанд кадамжолари. Тошкент. 2007.

12. Массон М. Е. Регистан и его медресе. Ташкент. 1926.

13. Чехович О.Д. Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве. Акты феодальной собственности на землю XVII - XIX вв. / Подбор документов, перевод, введение и примечания Ташкент: Издательство АН УзССР, 1954. — 269 с.ю.

14. O'zR MDA, 323-fond, 1-ro'yxat, №1197/6-7.